



ZAMONAVIY ARMIYA — YANGI O'ZBEKISTON XAVFSIZLIGINING MUHIM TAYANCHI

N.A.Mirzaliyev

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22045270>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 17-avgust 2026 yil
Ma'qullandi: 19-avgust 2026 yil
Nashr qilindi: 21-avgust 2026 yil

KEYWORDS

*Yangi O'zbekiston, zamonaviy
armiya, milliy xavfsizlik, Qurolli
Kuchlar, harbiy islohotlar,
harbiy ta'lim.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida milliy
armiyaning davlat xavfsizligi va barqarorligini
ta'minlashdagi o'rni, Qurolli Kuchlarni modernizatsiya
qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar hamda
istiqboldagi ustuvor yo'nalishlar tahlil qilinadi.*

Hozirgi davrda har bir mamlakatning mustaqilligi, hududiy yaxlitligi saqlab turish, aholining tinch va osuda hayotini ta'minlashda har qanday tahdidlarga munosib javob bera olish qobiliyatiga ega zamonaviy Qurolli Kuchlarning mavjudligi muhim strategik omillardan biri hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiy va siyosiy qudrati qanchalik yuqori bo'lmasin, uning xavfsizligini ishonchli ta'minlaydigan samarali mudofaa tizimi mavjud bo'lmasa, barqaror rivojlanishning mustahkam kafolatini yaratish qiyin. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida Qurolli Kuchlar davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilishi belgilangan. [1]

Bugungi ayrim dunyo mamlakatlari orasida yuz berayotgan qurolli majorolar an'anaviy harbiy to'qnashuvlar bilan cheklanibgina qolmay, kiberhujumlar, axborot tahdidlari, uchuvchisiz tizimlar, robotlashtirilgan vositalar va texnologik raqobatni ham o'z ichiga qamrab olmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekistonda milliy armiyani shakllantirish davlat mustaqilligining muhim shartlaridan biri sifatida qaraldi. Tarixiy jihatdan qisqa davr ichida milliy harbiy boshqaruv tizimi, harbiy ta'lim, harbiy okruglar, moddiy-texnik ta'minot va professional harbiy kadrlar tayyorlash tizimi bosqichma-bosqich shakllantirildi. Keyingi yillarda esa ushbu jarayon sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, davlat rahbari tomonidan 2026-yil 14-yanvarda bildirilgan fikrlarda qo'shinlarni zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlash, boshqaruv hamda qaror qabul qilish jarayonlariga ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, sun'iy intellekt asosidagi robotlashtirilgan majmualardan foydalanish va harbiy kadrlarning kasbiy-intellektual salohiyatini oshirish istiqboldagi ustuvor yo'nalishlar sifatida ko'rsatildi. [2]

Yangi O'zbekistonda o'tgan qisqa davr mobaynida harbiy sohada amalga oshirilgan tashkiliy, texnologik, ta'limiy va ijtimoiy yo'nalishlardagi islohotlar o'z samarasini berib bormoqda. Bu borada yangi taktik usullar, zamonaviy harbiy tayyorgarlik yondashuvlari va harbiy xizmatchilarning kasbiy rivojiga qaratilgan mexanizmlarga kengroq e'tibor qaratilyotgani alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yilda qabul qilingan Mudofaa doktrinasi mamlakat mudofaa siyosatining asosiy tamoyillari va yondashuvlarini belgilab berdi. Doktrinada O'zbekiston mudofaa xususiyatidagi siyosat yuritishi, hech bir davlatni dushman sifatida ko'rmasligi va xavfsizlik masalalarini xalqaro huquq prinsiplari asosida hal etishga intilishi belgilangan. [3]

Shu jihatdan zamonaviy armiyani shakllantirish O'zbekistonning tashqi siyosiy tamoyillari bilan hamohang bo'lib, uning asosiy vazifasi tajovuzkor siyosat yuritish emas, balki mamlakat suvereniteti, hududiy yaxlitligi, tinchligi va xavfsizligini ishonchli himoya qilishdan iborat.

Bugungi kunda zamonaviy armiya deganda faqat yangi qurol-aslahaga ega Qurolli Kuchlar emas, aksincha, shu bilan birgalikda inson kapitali, harbiy ta'lim, ilm-fan, innovatsiya, raqamli boshqaruv, mudofaa sanoati va infratuzilmasini yagona tizim sifatida ko'rish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Zamonaviy armiyaning asosiy kuchi uning mavjud zamonaviy texnik vositalari bilan bir qatorda, ulardan samarali foydalana oladigan bilimli va professional harbiy xizmatchilarga ega ekanligi bilan ham belgilanadi. Shu sababli ham harbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, harbiy sohada islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Mudofaa to'g'risida"gi Qonun, Mudofaa doktrinasi, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonun, "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Ushbu hujjatlar mamlakat mudofaa tizimining huquqiy poydevorini shakllantiradi. Ayniqsa, 2018-yil 9-yanvarda qabul qilingan O'RQ-458-sonli Qonun bilan tasdiqlangan Mudofaa doktrinasi harbiy sohada milliy xavfsizlikni ta'minlashga doir prinsip va yondashuvlarni belgilab bergani bilan muhim ahamiyatga ega. [3]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yildagi chiqishlarda zamonaviy, qudratli va professional armiyani shakllantirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi va harbiy ta'limni takomillashtirish vazifalari belgilangan.[4] 2023-yilga kelib esa rasmiy nutqlarda ixcham, tezkor va katta harbiy salohiyatga ega zamonaviy armiya shakllangani qayd etildi. [5]

Bu yo'nalishda nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, zamonaviy malaka talablari asosida o'quv dasturlarini yangilash, axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rgatishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu o'z navbatida bo'lajak ofitserlarida analitik fikrlash, texnologik savodxonlik va tezkor qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishga muhim ro'l o'ynaydi.

Xavfsizlik kengashining 2026-yil 13-yanvardagi yig'ilishida qo'shinlarda yangi taktik usullarni joriy etish, uchuvchisiz uchish apparatlari bo'linmalarini tashkil etish, armiyani raqamlashtirish, axborot xavfsizligini kuchaytirish va harbiy ta'limni sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar bilan boyitish masalalariga e'tibor qaratilgan.[6]

Shu davrgacha O'zbekiston Qurolli Kuchlarini rivojlantirish yuzasidan bir qator o'rganish ishlari olib borilgan bo'lib, A.S. Shukurov va Sh.Sh. Xakimovning "Milliy xavfsizlikni ta'minlashda Mudofaa doktrinasining strategik jihatlari" nomli maqolasida Mudofaa doktrinasini milliy xavfsizlikning strategik, siyosiy, iqtisodiy, texnik va tashkiliy asoslarini belgilovchi muhim hujjat sifatida tahlil qilinadi. [7]

S. Kudaibergenovning "O'zbekiston Respublikasi mudofaa qobiliyati" nomli tadqiqotida esa Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish, harbiy ta'limni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va professional harbiy salohiyatni oshirish mudofaa qobiliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida ko'rsatiladi. [8]

M. M. Ismatovning 2026-yilda chop etilgan "O'zbekiston Respublikasida mudofaa tizimini isloh qilishning huquqiy asoslari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari" maqolasi mavzuga bevosita yaqin bo'lib, unda mudofaa tizimining huquqiy asoslari, harbiy boshqaruv, chegara xavfsizligi, professional kadrlar siyosati, raqamlashtirish va kiberxavfsizlik masalalari kompleks tahlil qilingan. Muallif zamonaviy tahdidlar sharoitida "texnika + kadr + huquq" uyg'unligini ta'minlash zarurligini asoslaydi. [9]

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili O'zbekistonda zamonaviy armiyani shakllantirish jarayoni uch asosiy yo'nalishda kechayotganini ko'rsatadi: institutsional-huquqiy modernizatsiya, texnologik modernizatsiya va inson kapitalini rivojlantirish. Biroq ushbu uch yo'nalishning yagona xavfsizlik tizimi sifatidagi o'zaro bog'liqligini kompleks tahlil qilish dolzarb ilmiy masala bo'lib qolmoqda.

Harbiy majorolar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda harbiy boshqaruvda axborotni tezkor olish, qayta ishlash va qaror qabul qilishga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Shu bois ham harbiy sohadagi raqamli boshqaruv tizimlari, ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va radio elektron kurashni rivojlantirish, istiqboldagi muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy axborot makonida sun'iy intellektdan harbiy ta'lim, simulyatsion mashg'ulotlar, texnik holat monitoringi va katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda foydalanish imkoniyatlari tabora kengayib bormoqda. Bunday tizimlar inson qarorini almashtirishdan ko'ra, qaror qabul qiluvchiga tezkor va tizimli axborot beruvchi vosita sifatida rivojlantirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bugungi kundagi harbiy nizolar tahlillari uchuvchisiz uchish apparatlari, robotlashtirilgan vositalar va ularga qarshi texnologiyalardan tabora kengroq foydalanilyotganligini namayon etmoqda. O'zbekiston Qurolli Kuchlarida ham UUA va dron operatorlarini tayyorlash, zamonaviy texnologiyalar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish hamda innovatsion loyihalarni keng tadbiq etishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Aynan mana shu sohalarni rivojlantirish maqsadida ilmiy-tadqiqot markazlari, oliy harbiy ta'lim muassasalari va mudofaa sanoati o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirishga e'tibor qaratish zarur.

Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy va professional armiyani shakllantirish milliy xavfsizlikni ta'minlashning strategik yo'nalishlaridan biridir. Bugungi kunda harbiy ta'limni yangilash, yoshlarning kasbiy rivojiga ko'maklashish, raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va harbiy xizmatchilarning professional salohiyatini oshirish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Istiqbolda sun'iy intellekt, uchuvchisiz va robotlashtirilgan tizimlar, kiberxavfsizlik, raqamli boshqaruv, simulyatsion ta'lim, mudofaa

sanoati va professional kadrlar tayyorlash yo'nalishlariga izchil e'tibor qaratish O'zbekiston armiyasining texnologik va intellektual salohiyatini yanada yuksaltiradi. Shunday qilib, zamonaviy armiya faqat davlatning harbiy qudrati emas, balki uning ilmiy, texnologik, ta'limiy va inson kapitali salohiyatining ham ko'rsatkichidir. Kuchli, professional va zamonaviy Qurolli Kuchlar Yangi O'zbekistonning tinchligi, barqarorligi va taraqqiyotining muhim tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 152–153-moddalar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. – 14.01.2026.
3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-458-son "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasini to'g'risida"gi Qonuni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – LexUZ. 10.01.2018.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Zamonaviy, qudratli armiya – tinch-osoyishta hayotimiz kafolati. – 26.01.2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Vatan himoyachilariga davlat mukofotlari topshirildi. – 13.01.2023.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini yanada mustahkamlashning ustuvor vazifalari muhokama qilindi. – 13.01.2026.
7. Shukurov A.S., Xakimov Sh.Sh. Milliy xavfsizlikni ta'minlashda Mudofaa doktrinasining strategik jihatlari // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Vol. 2. – Special Issue 17. – B. 452–458.
8. Kudaibergenov S.P. O'zbekiston Respublikasi mudofaa qobiliyati // Ilmiy-tahliliy jurnal. – 2025. – №11. – B. 106–113.
9. Ismatov M.M. O'zbekiston Respublikasida mudofaa tizimini isloh qilishning huquqiy asoslari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar ilmiy metodik jurnali. – 2026. – Vol. 3. – №5. – B. 113–120.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli xizmatni o'tash nufuzi va jozibadorligini oshirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-134-son qarori. – 07.04.2026.